

OTA-ONAGA BOLA TARBIYALASHDA PSIXOLOG TAVSIYASI

Axmedova Moxira Muxamadovna

Toshkent viloyati Olmaliq shahar

22-maktab psixologi

Annotatsiya: Farzandingizga aytish mumkin bo’lmagan 10ta ibora

Har bir ota-onal farzandi sog’lom va baxtli bo’lib katta bo’lishini istaydi. Shunga qaramay, biz kattalar o’zimiz bilmagan holda bunga to’sqinlik qilamiz. Mazkur maqolada farzand hayotiga zarar keltirishi mumkin bo’lgan, ota-onalar tomonidan aytildigan fikrlar taqdim etiladi.

Kalit so’zi: Tarbiya,zarar,to’sqinlik,fikr

Farzandlarga vaziyat taqozo qilganida aytish kerak bo’lgan gaplar mavjud. Misol uchun, maqtash, achinish, qo’llab-quvvatlashga oid bo’lgan iboralar. Aksinchalik foydalanganda ehtiyyotkorlikni talab etadigan so’z birikmalari bor. Yana bir turdag'i iboralar bor-ki, ularni farzandlar oldida umuman aytmaslik maqsadga muvofiq bo’ladi.

Ahmoqona gaplarni gapirma!

Sinonimi: “Bekorchi gaplarni gapirma”.

Nima uchun mumkin emas? Bolalar kattalardan farqli ravishda “bekorchi” gaplarni hyech qachon gapireshmaydi. Kichkina odam bizga ma’lum qilishga qaror qilgan har bir ma’lumot u qanchalik kulgili va aqlga sig’mas ko’rinishiga qaramay, bolakay uchun muhim sanaladi. Bu ibora bilan siz farzandingizga uning so’zlari u qadar muhim emasligini namoyish etasiz. Keyinchalik, uning sizdan yashiradigan sirlari erta paydo bo’lganiga ajablanmang.

Buning o’rniga nima deyishimiz mumkin? Bolaning so’zini bo’lishdan avval, uni diqqat bilan tinglsh kera. Agar bolakay sizga o’zining yangi kashfiyoti haqida gapirib bersa, u bilan birga quvoning, muammosidan so’z ochsa, birgalikda yechim topishga harakat qiling.

Mana ol, lekin ket.

Sinonimlari: “Mana ushla va meni tinch qo’y”, “Ol va meni boshqa bezovta qilma”.

Nima uchun mumkin emas? Bu bolaning talablariga rozi bo'lishning eng yomon usuli. Sizni tinch qo'yishi uchun biror narsa berishingizdan tashqari, u evaziga hayotingizdan ketishi kerak. Bolalar mana shu yo'l bilan o'zi istagan narsasiga erishishni o'rganib oladi. Ota-onalar esa keyin hayron bo'ladilar: begonalik hissi bolada qayerdan paydo bo'ldi?

Buning o'rniga nima deyishimiz mumkin? Hyech kim farzandiga doimiy ravishda yo'q deya olmaydi, bu talab ham etilmaydi. "Meni tinch qo'y" so'zidan voz kechsangiz ham bu ancha yaxshi bo'ladi.

Sening qo'lingdan kelmaydi, kel buni yaxshisi men bajaraman

Sinonimlari: "Sening qo'lingdan kelmaydi", "Tinch qo'y, bari bir bajara olmaysan".

Nima uchun mumkin emas? Sinab ko'rish imkoniyati huquqidan mahrum etib, siz bolaga qo'lidan kelmaslik hissini singdirasiz va uni muvaffaqiyatsizlik sari yetaklaysiz. Psixologiyada mazkur holatning natijasi "o'rganib qolningan yordamga muhtojlik" deb ataladi – inson mazkur holatda oldindan, hali hyech nimaga qo'l urmay turib, hyech nimani o'zgartira olmasligini biladi.

Buning o'rniga nima qilish mumkin? Agar farzandingiz qo'lidan kelmaydigan ishni amalga oshirmoqchi ekanligini ko'rsangiz, yaxshi unga "Kel senga yordam beray" deganingiz maql. Yoki unga sizga yordam berishiga ruxsat bering. Agar bu imkonsiz bo'lsa, misol uchun farzandingiz elektr simini tuzatmoqchi bo'lsa, bu u uchun xavfli ekanini tushuntiring.

Boshqa bolalar bajara oladi, sen esa eplay olmaysan.

Sinonimlari: "bajara oladi" so'zining o'rnida ko'plab variantlar bo'lishi mumkin (qulq solishadi, yaxshi o'qiydilar, bilishadi, nimagadir erishishgan).

Nima uchun mumkin emas? Bolani o'zgalarga qaraganda yomon deya his etishga majbur etib, unda to'la qimmatga ega emaslik hissini shakllantirasiz. Ba'zilar aynan shu yo'l bilan bolada yaxshiroq bo'lishga sabab paydo bo'ladi, deya fikrlashadi. Biroq kattalar bilan ham mazkur usul har doim ham natija beravermaydi. Bolaga kelsak – bu juda yomon holatlarga olib kelishi mumkin.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Zigmund Freydga tegishli deya aytildigan bir fikr mavjud: "O'zingizni taqqoslashingiz mumkin bo'lgan yagona odam bu -

o'tmishdagi o'zingizdir". Mazkur fikr muallifi Freyd ekanligi noma'lum, biroq mazkur prinsipga ko'ra ish ko'rish oqilona bo'ladi.

Seni ko'rmasam edi.

Sinonimlari: "Ko'zimdan yo'qol", "Seni ko'rgim kelmayapti".

Nima uchun mumkin emas? Mazkur so'zlar bolaga uning o'zi ham, uning muammolari ham ota-onasiga kerak emasligi haqida xabar beradi. Ba'zida ota-onalar shu yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan mojaroning oldini olmoqchi bo'ladilar, biroq muammodan qochish uni hal etishni anglatmaydi, aksincha u yanada chuqurlashadi.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Farzandlarni tinglash, ularga yordam berish lozim. Mojaroli vaziyatlar sodir bo'lib turishi tabiiy hol, bunday vaziyatlarda o'zgacha usullarni qo'llash lozim.

Haqoratli so'zlar

Sinonimlari: ularni hamma biladi

Nima uchun mumkin emas? Nutqda haqoratli so'zlarning zarurligi, mumkinligi haqidagi bahsni boshlamaymiz.

Buning o'rniga nima nima deyish mumkin? Mazkur so'zlarni 99 foiz holatda haqoratli bo'limgan so'zlarga almashtirish yoki umuman nutqdan chiqarib tashlash mumkin.

Agar sen bo'limganingda...

Sinonimlari: "Seni nimaga ham dunyoga keltirdim", "Abort qilganimda yaxshiroq bo'lardi".

Nima uchun mumkin emas? Bunday iboralalar bolada aybdorlik hissini uyg'otadi. U o'zining mavjudligi bilan ota-onasiga og'riq, yomonlik olib kelayotganligi hissini o'zlashtiradi. Bu esa bola psixikasi uchun ongni zararlantiruvchi holatdir.

Buning o'rniga nima deyish mumkin? Bunday o'ylar - o'zingizni anglab olish uchun sabab hisoblanadi. Siz farzandingizni shaxsiy muvaffaqiyatsizlik va omadsizligingizda ayblayapsiz. Bu haqda yaxshilab o'ylab ko'ring.

Sen yomonsan!

Sinonimlari: "Vahshiysan", "Ahmoqsan", "Quloqsizsan".

Nima uchun mumkin emas? Bolalar o’z ota-onalari tomonidan berilgan baholarga juda ishonadilar. Bunday tavsifnomalar berganingizda farzandingiz uni o’zlashtirib, aynan shunday bo’lishga harakat qilishiga tayyor bo’ling. Bu esa kelajakda o’ziga past baho berish va muammolarni anglatadi.

Buning o’rniga nima deyish mumkin? “Sen yomonsan” deyish o’rniga “sen yomon ish qilding”. “Sen ahmoqsan” emas, “bu noto’g’ri qaror”. Bolani emas, uning harakatlarini baholaganingizda uni yaxshiroq bo’lish uchun ruhlantirasiz.

Men seni yaxshi ko’rmayman!

Sinonimlari: “Agar sen u yoki bu narsani qilsang, yoki qilmasang, u holda men seni yaxshi ko’rmayman”.

Nima uchun mumkin emas? Ota-onaning muxabbati hyech qanday shartlarsiz bo’lishi lozim. Undan ayrilib qolish tahdidi hayotga bo’lgan tahdid bilan teng. Oxir-oqibat, siz haqiqatan ham farzandingizni yaxshi ko’rmaysizmi? U holda bu darajada qo’rqinchli yolg’oniunga aytishning nima keragi bor?

Buning o’rniga nima deyish mumkin? Keyingi bandga tegishli bo’lgan fikrlarni aytish mumkin.

Men seni tashlab ketaman

Sinonimlari: “Mana shu yerda qoldirib ketaman”, “Anavi amakiga berib yuboraman”.

Nima uchun mumkin emas? Ota-onsa farzand uchun eng muhim insonlardir. Uning hayoti aynan ularga bog’liq, farzand onasiz mavjud bo’lishni xayoliga ham keltira olmaydi. Shuning uchun, bunday iboralar shu darajada samarali-ki, faqatgina dastlabki vaqtarda. Be’mani tahdidlarni bola tezlik bilan qabul qilmay qo’yadi. Biroq nevroz shakllanib ulgurishi uchun vaqt bemalol yetarli bo’ladi.

Buning o’rniga nima deyish mumkin? Istagan gapingizni aytishingiz mumkin. Jismoniy jazo bilan tahdid qilish odatda bolani tashlab ketish, yaxshi ko’rmay qo’yish bilan qo’rkitishning oldida u qadar qo’rqinchli usul bo’lmay qoladi. Yaxshisi bola bilan qo’rquv va jazoga asoslanmagan munosabatlarni o’matish lozim. Bu oson emas, biroq natija bunga arziydi.

Tushunganingizdek, so'zlarning o'ziga emas, ota-onalarning mazkur so'z ortida turuvchi munosabatlari ham muhim sanaladi. Ota-onaning xulq-atvori bundan ham muhimroq. Shuning uchun nafaqat yomon so'zlar, balki yomon odat va ishlardan ham voz kechish lozim.

Baxtli bola tarbiyalash siri

Yaponiyalik Masaru Ibuka - ko'p qirrali va juda iste'dodli inson. Sony kompaniyasi asoschilaridan bo'lgan jiddiy biznesmen bolalar psixologiyasi va pedagogikani chuqr o'rgangan va o'zining "Uch yoshdan keyin kech bo'ladi" deb nomlangan bolalarni erta rivojlantirish borasidagi g'aroyib qo'llanmasini yaratdi.

U bolani rivojlantirishdan maqsad uni vunderkind qilib tarbiyalash emasligini doimiy tarzda qayd etgan. "Erta rivojlantirishning asosiya maqsadi – bu baxtli bolalarni tarbiyalashdir. Bolaga yaxshi musiqa tinglash, xorijiy tillarni o'rganish imkoniyati uni tilshunos yoki musiqachi etib tarbiyalash maqsadida berilmaydi. Asosiysi – bola hayotidagi xursandchiliklar yanada ko'proq bo'lishi uchun uning cheksiz imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat", - deb yozadi u.

Quyida Masaru Ibukaning "Uch yoshdan keyin kech bo'ladi" asaridagi asosiy maslahatlarni keltirib o'tamiz. O'z vaqtida ular novatorlik g'oyalari edi, hozirgi kunda esa mehribon va suyukli ota-otanalar uchun normal xulq-atvor normalariga aylanib boryapti.

Masaru Ibukaning asosiy maslahatlari

1. Bola kichik yoshidanoq insoniyatning eng yaxshi yutuqlari ichida bo'lsin. Mumtoz musiqa tinglang, san'at asarlarini ko'rsating, badiiy adabiyot o'qib bering.

2. Bolani tez-tez qo'lingizda ko'taring. Bunday muloqot bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

3. Chaqaloq bilan chuchuk tilda gaplashmang. Bola bilan tug'ilgan paytidan boshlab kattalar tilida gaplasting.

4. Bola bilan har kuni shug'ullaning. Hatto bir kunlik mashq ham hayratlanarli natijalarga olib keladi.

5. Bolaning oldida urishmang. Farzandingiz salbiy holatlarni ta'sirchanlik bilan his etadi.

6. Farzandingizga sizning joyingizda birga uqlashga ruxsat bering. Birgalikda uqlash bolaga rivojlantirish ta'sirini o'tkazadi.

7. Bolani boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishga ruhlantiring. Bu bola aqli, raqobatbardoshlilik, birinchi bo'lish xissini oshiradi.

8. Farzandingizga o'z manfaatlarini ilgari surish va hatto urishishni ham man etmang. Bahslar muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

9. Bolani cheklamang. Bola qo'llari bilan amalgaga oshiradigan barcha mashg'ulotlar uning aqliy qobiliyati va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

10. Bolani ehtiyyotkorlik maqtang va jazolang. Ayniqsa o'g'il bolalarni ishlari uchun maqtash kerak, juda kam jazolang.

11. O'zingizning "yaxshi" va "yomon"ingizni bolaga singdirmang. Bolaga o'z hayot tajribasini sizning yordamingizda olishiga qo'yib bering, vaqt o'tishi bilan u hamma narsani o'zi farqlay oladigan bo'ladi.

12. Bolada biror narsaga qiziqish uyg'oting. Buning uchun barcha sharoitlarni yaratib bering.

13. O'tilganlarni takrorlang. Bu bola miyasida to'g'ri chizmalarni shakllantiradi.

14. Bolaga nafaqat ona, ota ham kerak. Ota va farzand o'rtasidagi muloqotda hyech qanday cheklovlar bo'lmasligi darkor.

15. Bolalar hayoloti (fantaziya) sini ahmoqona deb hisoblamang. Orzu va hayol qilish qobiliyati bolaning ijodiy salohiyatini shakllantiradi.

16. Bolaga o'zingizning shaxsiy buyumingiz sifatida qaramang. Bunday emas. Bundan tashqari, bu bolaning o'z kuchiga ishonmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

17. Bolada qo'l orqali his qilish qobiliyatini rivojlantiring. Bolaga turli materiallar – yumshoq va qattiq, og'ir va yengil, tekis va g'adir-budir predmetlarni bering.

18. Bolaga u so'ragan barcha o'yinchoqlarini sotib olib bermang. O'yinchoqlarning ko'pligi diqqatni oladi, buning oqibatida ilm olish murakkablashadi.

19. Bolaga detallardan iborat o'yinchoqlarni taqdim eting. Bola o'yinchoqni o'zi yig'a olganida quvonchga to'ladi. Tayyor o'yinchoqlar davrida bu juda noyob.

20. Bolaning kichik motorikasini - yasash, applikasiyalar, shakllarni kesish va yig'ish orqali rivojlantiring. Ma'lumki, "bolaning aqli – uning barmoqlarining uchida".

21. Bola bilan piyoda sayr qiling. Piyoda yurish juda foydali, axir yurish vaqtida tananing 639 ta mushaklaridan 400 tasi harakatda bo'ladi.

22. Bola biror narsa bilan shug'ullanishni boshlaganida natijaga katta ahamiyat ko'rsatmang. Axir uning uchun natija emas, jarayon muhim hisoblanadi. Unga qanchalik qiziq bo'lsa, shuncha mehnat qilishiga qo'yib bering.

23. Bola irodasiga qarshi chiqmang. Uning irodasiga qarshi ish qilishga majburlash orqali uning o'ziga bo'lgan ishonchini sindirasiz.

24. Bolada nostandart fikrlash ko'nikmasini shakllantiring. Standartlar standart odam qilib tarbiyalaydi.

25. Bolalarni tarbiyalashdan oldin ularning ota-onalari, ya'ni o'zimizni tarbiyalashimiz lozim. Maqolamizni Masaru Ibukaning a'lo darajali iqtibosi bilan yakunlamoqchimiz:

"Farzand uchun eng yaxshi tarbiya – bu onaning mehridir. Ota-onalarning eng asosiy mashg'uloti – farzandlarni tarbiyalash. Agar ular bunga rozi bo'lmasalar, unda nima uchun farzandli bo'lishdi?"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umarov B.M. Bolalar tarbiyasida etnopsixologik va etnopedagogik xususiyatlarni hisobga olish. //Xalq pedagogikasi bo_yicha xalqaro simpozium materiallari to_plami. Termiz, 1995. - B.34-37.

2. www.ziyonet.uz